



HARBIY PEDAGOG VA PSIXOLOGLARNI MALAKASINI OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASHDA IJTIMOIIY PSIXOLOGIK TRENING MASHG‘ULOTLARINING AHAMIYATI

Abdurahimova D.A.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi

Harbiy psixologiya va pedagogika kafedrasi professori, p.f.d.(DSc), professor

Ushbu maqolada mudofaa vazirligi malaka oshirish tizimida o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil qilishning o‘ziga xos bo‘lgan psixologik-metodik jihatlariga urg‘u berilgan. Bunda ijtimoiy-psixologik treninglar asosida mashg‘ulotlarni olib borish orqali tinglovchilarda ta’lim-tarbiya jarayonida o‘z kursantlari bilan bo‘ladigan ruhiy-emotsional yaqinlik, empatiya hissi va o‘ziga bo‘lgan ishonchni qaror toptirish ko‘zda tutiladi.

Tayanch tushunchalar: psixologiya, harbiy, psixologik omillar, trening, mashg‘ulot, nazorat, boshqarish.

Globalashuv – insoniyatning ongu shuuri, tafakkuri samarasi sifatida vujudga kelgan jahon miqyosidagi umumiy jarayon, u chegara va hududlarni bilmaydigan, tuzumlarni tan olmaydigan, uzluksiz kuchayib va rivojlanib borayotgan jarayondir. Ana shunday globalashuv davrida har qanday davlatning taraqqiy etishi, uni rivojlangan davlatlar qatoridan mustahkam o‘rin olishi, birinchi navbatda, davlatning intellektual salohiyati, yosh avlod ta’lim-tarbiyasi va zamonaviy kadrlar tayyorlash tizimiga bog‘liqdir.

Xalqaro munosabatlarning butun tizimi o‘zgarib borayotgan sharoitlarda jahondagi harbiy-siyosiy vaziyat xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka xavf-xatar hamda tahdidlar ko‘lami kengayib borayotganligi, geosiyosiy qarama-qarshilikning kuchayishi, mojarolar va tang vaziyatlarni kuch ishlatib hal etishga bo‘lgan yondashuvning ustunlik qilishi, harbiylashtirish, xalqaro terrorizm va ekstremizm faollashganligi, axborot makoni va kibermakonda o‘zaro kurash kuchayganligi, shuningdek, terrorizm, ekstremizm, narkotrafik va transchegaraviy jinoyatchilikning saqlanib turganligi Markaziy Osiyodagi vaziyatga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.



Jahonda ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlaydigan asosiy omil sifatida e'tirof etiladi. Dunyoning bir qancha davlatlari o'zlariga butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish jarayonini eng muhim vazifa sifatida belgilagan.

Shu maqsadda respublikamizning turli harbiy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlarning o'qitish metodikasini takomillashtirish, shu jumladan, harbiy ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish, ta'lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish hamda bo'lajak ofitser kadrlarni o'qitish va tarbiyalashda harbiy pedagogika va harbiy psixologiya fanlar tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyodagi rivojlangan davlatlar qanday qilib yuksak taraqqiyot va turmush farovonligiga erishmoqda? Ular eng avvalo, ilm-fan va ta'limga qaratgan ulkan e'tiborlari sabablidir.

Shu o'rinda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoev oliy majlisga murojaatnomasida, -hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq.

Shaxsan men jonkuyar olimlarimiz buyuk ajdodlarimizning ilmiy an'alarini munosib davom ettirgan holda, ilm-fanni taraqqiyotimizning drayveriga aylantirib, mamlakat rivojiga xizmat qiladigan muhim kashfiyotlar yaratishlariga ishonaman.

Agar intilsak, astoydil harakat qilsak, har qanday baland marrani egallash qo'limizdan keladi. Biz ma'rifat borasida, ta'bir joiz bo'lsa, "iligi to'q" xalqmiz. Ilm-fanga intilish bizning qonimizda, bugungi til bilan aytganda, genimizda bor.

"Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir", - deya ta'kidlaydilar.

Qurolli Kuchlar hayoti va faoliyatida, harbiy kadrlarni o'qitish va tarbiyalash qonuniyatlarini o'rganish hamda harbiy xizmat faoliyatiga harbiy xizmatchilarni tayyorlashda harbiy pedagogika va harbiy psixologiya fani alohida o'rin tutadi.



O'zbekiston Respublikasi Mudofaa tizimida hozirgi paytda harbiy xizmatchilar malakasi sifatini oshirishda ularni jangovar haqqoniylik sharoitiga nisbatan maksimal yaqinlashtirilgan ta'lim va tarbiyani amalga oshirish bo'yicha sezilarli ishlar olib borilmoqda.

Harbiy xizmatchilar, kursantlar ta'lim va tarbiyasini samarali tashkil etish maqsadida ko'pgina fanlarning, xususan harbiy xizmatni psixologik, pedagogik jihatlari, eng avvalo shaxsiy tarkibni jangovar va siyosiy tayyorgarligini o'rganuvchi fan - harbiy pedagogikaning yutuqlaridan foydalanilmoqda.

Malaka oshirish tizimining asosiy vazifasi doimiy ravishda harbiy-pedagog kadrlarning malakasini oshirish, harbiy-pedagoglarning o'z kasbiga xos bilim, saviya, ko'nikma, malakalarini, ma'naviyat va ma'rifatini oshirishga qaratilgan ijtimoiy-psixologik sohalarini rivojlantirib borishdan iborat. Malaka oshirish markazlari harbiy pedagog professor o'qituvchilari andragogika ta'limining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilish jarayonida tinglovchilarning ijtimoiy-psixologik ehtiyojlarini bilish va hisobga olishlari muhim ahamiyatga ega.

Mazkur psixologik omillarni hisobga olgan holda, malaka oshirish tizimida ta'limning ilg'or shakl va usullarini qo'llash natijasida tinglovchilarda qator sifatlar rivojlantirib boriladi. Jumladan:

- yangiliklarni o'rganish, amalda qo'llashga qiziqishlari ortadi;
- kasbiy tayyorgarlik darajasi va mahorati ortadi;
- o'zgarishlarga bo'lgan munosabatlari shakllanadi;
- hamkorlikda ishlash ko'nikmalari ortadi;
- muloqotga kirishuvchanlik, moslashuvchanlik qobiliyatlari o'sadi;
- psixologik to'siqlarni yengish malakasi rivojlanadi;
- kursant o'rniga o'zlarini qo'ya bilib, buning o'ziga xos xususiyatlarini tushunishlari mumkin bo'ladi.

Shu bilan birga, malaka oshirish jarayonida andragogika ta'limiga xos bo'lgan muayyan salbiy holat va xususiyatlar namoyon bo'lishi mumkinligini ham hisobga olish zarur. Jumladan:



- tinglovchi roliga tayyor emasligi;
- o'quv jarayoniga psixologik tayyorgarlikning yetishmasligi;
- ularda tinglovchilik ko'nikmalarining yo'qligi;
- yangi axborot va bilimlarga qiziqish, ammo ularni qayerda va qachon qo'llashni bilmaslik;
- o'zi gapirish va o'rgatishga odatlanganligi sabab eshitish va tinglashga xalaqit berishi;
- ma'ruzachining ilmiy qarashlarini qabul qilmaslik, bunga xohishning yo'qligi;
- mashg'ulot jarayonida shaxsiy va kasbiy ambitsiyalardan chiqa olmaslik (bu ayniqsa rahbarlarga xos);
- o'qituvchi va shaxsiy tarkibning tanqid qilishidan hadiksirash;
- tez charchash, bundan diqqatning bo'linishi va uni jamlay olmaslik.

Keltirilgan salbiy psixologik omillarni bartaraf etish tinglovchilarning o'quv motivatsiyasini oshirish, ularda ma'lumot olishga qiziqishni kuchaytirish usullarini ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu yo'nalishdagi muammolarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, malaka oshirish kurslarida har bir mashg'ulotning mazmuniga muvofiq bo'lgan zamonaviy inovatsion pedagogik texnologiyalar va psixologik treninglardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi.

Ruhiy jihatdan salomatlik har bir inson uchun muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, Vatan himoyachilariga ta'lim-tarbiya berishdek mas'uliyatli va murakkab bo'lgan faoliyatni amalga oshiruvchi o'qituvchi-pedagoglarning sog'lom ruhiy hissiy holatlari o'quv faoliyatining samarasiga, harbiy jamoa kayfiyatiga ta'sir etmasdan qolmaydi. Shuning uchun ham malaka oshirishga kelgan tinglovchilarni nafaqat ilmiy- nazariy bilimlar bilan qurollantirish, balki psixologik treninglar orqali o'z ichki dunyosida kechayotgan o'zgarishlarni tushunish, ularni qiynayotgan shaxslararo munosabatlar, harbiylar jamoasi yoki oila bilan bog'liq bo'lgan muammolarini hal qilishda ko'nikma va malakalarini hosil qildirish maqsadga muvofiqdir.

Psixologik trening o'zi nima? Psixologik treninglar shaxsda mavjud bo'lgan yoki vujudga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni hosil qilish maqsadida turli xil o'yin va mashqlar orqali o'tkaziladigan



mashg'ulot hisoblanadi. Trening ingliz tilidan olingan bo'lib, "mashq qilish", "takrorlash" ma'nolarini bildiradi. Psixologik trening haqida gap ketganda, bu atama ko'pchilik tomonidan "muammolarning yechimi topiladigan mashg'ulot" sifatida qabul qilinadi. Aslini olganda trening mashg'ulotlari kishilarning muammolarini hal qilmaydi, balki shu muammolarning asosini tahlil qila olish uchun lozim bo'lgan ko'nikma va malakalarni hosil qiladi. Treningga ta'rif berish yoki uni tushuntirishda turli mualliflar tomonidan turlicha yondashuvlar keltirilgan bo'lsa-da, ularning aksariyati trening mashg'ulotlari o'yin va mashqlar orqali amalga oshirilishiga va trening jarayonida ko'nikma va malakalar hosil etilishiga e'tibor qaratganlar.

1960 yillarda K.Rodjersning gumanistik psixologiya an'anasiga mos holda ijtimoiy va hayotiy ko'nikmalarni shakllantiruvchi treninglar o'tkazila boshlandi. Bu treninglar harbiy pedagoglar va menejerlarning kasbiy malakalarini va tayyorgarligini oshirish maqsadida amalga oshirilgan. Hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish yuzasidan olib borilgan treninglarda ishtirokchilarga yo'naltirilgan uchta asosiy modeldan foydalanilgan.

Birinchi model hayotiy ko'nikmalarning yetti xil turini o'z ichiga olgan bo'lib, bular: muammolarni yecha olish, muloqot, o'ziga ishonchni saqlab turish, tanqidiy tafakkur, qat'iyatlilik, Men-konsepsiyasini rivojlantirish va o'zini boshqara olish ko'nikmalaridir.

Ikkinchi model treningning asosiy maqsadi sifatida hayotiy ko'nikmalarning to'rtta kategoriyasini o'z ichiga oladi. Bular: harbiy jamoalararo muloqot, salomatligini asrash, qaror qabul qilish va muammolarni yechish ko'nikmalaridir.

Uchinchi model o'z hissiyotlarini nazorat qilish, shaxslararo munosabat, o'zini tushunish, o'zini iqtisodiy himoya qilish, o'zini qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini hosil qilishga qaratilgandir.

Shundan kelib chiqqan holda treningning maqsadi va vazifalariga ham aniqlik kiritib olish mumkin. O'tkaziladigan psixologik treninglarning maqsadi quyidagicha bo'lishi kuzatiladi:

- harbiy xizmatchi shaxsda muloqotchanlik ko'nikmalarini hosil qilish;
- hayotdagi qarama-qarshiliklarni to'g'ri tushuna olish va tahlil qilishga o'rgatish;
- shaxsning ichki holati (ruhiyati)ni o'zgartirishga erishish;



- ofitser uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni hosil qilish;
- nostandart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olish ko'nikmasini hosil qilish.

Har qanday trening mashg'ulotlarini olib borishda samaradorlikka erishish uchun, eng avvalo, ishtirokchilar orasida samimiylilik, ochiqlik, o'zaro ishonch muhitini yaratish lozim bo'ladi. Bular amalga oshmasdan turib, treningdan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi. Bunday muhitni yaratish esa trenerdan katta mahorat talab etish bilan birgalikda trening jarayonida qo'llaniladigan usullarga ham bog'liq bo'ladi. Bunday usullar sirasiga "ta'limning noan'anaviy usullari" deb nom olayotgan va bizning ta'lim tizimiga ham keng kirib kelayotgan usullar kiradi. Ular quyidagilardir:

- aqliy hujum;
- bahs-munozara;
- psixologik mashq va o'yinlar;
- rolli o'yinlar;
- psixogimnastik mashqlar;
- kartochkalar usuli;
- muammoli vaziyatlarni tahlil etish;
- guruhlariga bo'lish;
- sahna ko'rinishi;
- rolli o'yinlar.

Quyida trening mashg'ulotiga misol keltiramiz.

«Nazorat va boshqarish» mashqi.

O'qituvchilar ayrim kichik sinf bolalarida o'z-o'zini boshqara olmasliklari, o'quv faoliyatiga nisbatan mas'uliyatni his qilmasliklari to'g'risida ko'p gapirishadi. Ba'zi bir o'quvchi besaranjom, butun dars davomida harakatchan, boshqasi esa uning aksi – passiv va tormozlanuvchan, uchinchi o'ziga ishonmaydi, hamma narsani tushunsa ham, bilsa ham javob berishga qo'rqadi.

Mashqning maqsadi: kursantlarni sinfiy boshqarish va nazorat qilishning samarali yo'lini tashkil qilish.



Qatnashchilardan xohishga ko'ra harbiy pedagog rolini o'ynovchi guruh yig'iladi. Qolgan guruh qatnashchilari kichik maktab yoshidagi o'quvchilar rolini o'ynashadi. Har bir o'quvchi psixologdan kartochka oladi, unda uning nima qilishi kerakligi, qanday javob berishi va shu kabilar yozilgan bo'ladi. Qatnashchilar kartochkani o'zi uchun o'qib jim o'tirishadi. Kartochkada shunday so'zlar yozilgan bo'lishi mumkin:

“O'quvchi a'lochi, o'quv materialini yaxshi biladi va tashkilotchi. U harakatchan va tushunuvchan, lekin diqqati bo'linuvchan”.

“O'quvchi to'polonchi, har darsda qo'shnisiga tinchlik bermaydi”.

“Giperaktiv o'quvchi bir daqiqa ham o'tira olmaydi. Dars materialini qiyinchilik bilan o'zlashtiradi”.

“Passiv, tormozlanuvchan o'quvchi har doim oynaga qarab nimanidir o'ylab o'tiradi”.

“O'zining kuchiga ishonmaydi. Javob berishga tayyor bo'lsa ham hech qachon qo'lini ko'tarmaydi”.

Guruh sinfni tashkil qiladi. Har bir qatnashchi o'z joyini egallab oladi. Dars sahnasi yaratiladi. Har bir o'quvchi o'zining rolini o'ynaydi. Harbiy-pedagog rolini o'ynayotgan qatnashchi 5–10 daqiqa iliq psixologik iqlimni tashkil qilishga harakat qilishi kerak.

O'yindan so'ng ushbu vaziyat muhokama qilinadi va “sinfdagi vaziyatni me'yorda ushlab turish va kutilmagan vaziyatlarda ham yaxshi natijalarga erishish uchun o'qituvchi nima qilishi kerak?” kabi savollarga javob topishga harakat qiladilar. Ushbu mashqda o'qituvchi o'quvchilarini bir vaqtning o'zida ham nazorat qilishi, ham boshqarishi xususida fikr almashinadi.

Guruh muhokamasidan so'ng sinfni 5 daqiqada qanday tinchlantirish mumkinligi, vaziyatga yana qanday samarali va foydali usullarni qo'llash mumkinligi xaqida psixolog tomonidan tavsiyalar beriladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda shuni aytish joizki, malaka oshirish kurslarida ta'limning zamonaviy ilg'or shakl va usullarini tadbiq qilish natijasida o'quv mashg'ulotlari mazmuni va metodlari takomillashtirib boriladi.

Ta'lim jarayonida ijtimoiy-psixologik trening muhim ahamiyatga ega bo'lib, tinglovchi passiv holatdan aktiv holatga o'tadi. Bunday mashg'ulot orqali tinglovchi nafaqat



dars mazmunini o‘zlashtiradi, balki pedagogik mahorati va qobiliyatlarini namoyon etishga muvassar bo‘ladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Нишонов З.Т. Психологик хизмат. – Т.: ТДПУ нашриёти, 2005.
2. Захаров В.П., Хрящева Н.Ю. Социально-психологический тренинг. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1989.
3. Вачков И.В., Дерябо С.Д. Окна в мир тренинга. Методологические основы субъектного подхода к групповой работе. – Санкт-Петербург, “Речь”, 2004.
4. Ғозиев.Э. Тафаккур психологияси. Т. “Ўқитувчи”, 2019й.
5. “Олий таълим тизимида психология фанларини ўқитишнинг илмий-услубий муаммолари” Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Т., 2011.

